

O'zbek va ingliz tillarida antroponimlarning joy nomlari sifatida qo'llanish xususiyatlari

*Muxitdinova Xadicha Sabirovna,
x.muxitdinova@uzswlu.uz
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
pedagogika fanlari doktori, professor*

*To'laganova Nargiza Baxtiyor qizi
nargizatolaganova9@gmail.com
Magistrant
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

Annotatsiya. Maqolada tilshunoslikning nomlarni o'rganuvchi onomastika sohasi, uning til, madaniyat va tarix o'rtasidagi aloqalarni tushunishda muhim amaliy ahamiyatga egaligi masalasi yoritilgan. Tadqiqotda onomastikaning ko'lami va qatlamlari, nom toifalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, shaxs ismlarini ifodalovchi antroponimlarning dinamik tabiati tadqiq etilib, jamiyatdagi ijtimoiy-tarixiy o'zgarishlarning ta'siri natijasida shaxs ismlarining ijtimoiy-funksional vazifalari kengayib borayotgani tadqiq etilgan. Xususan, turli etnoslarning ijtimoiy, tarixiy va geografik kontekstlarda antroponimlarning toponimik obyektlar nomlarini ifodalab kelishi shaxs ismlarning ijtimoiy-siyosiy funksiyalarining kengayishiga olib kelayotgani o'zbek va ingliz tilidagi antroponimlar misolida tahlil qilingan. Ushbu tahliliy natijalar ismlar milliy-madaniy qadriyatlar, tarixiy kontekstlarning identifikator sifatidagina emas, ijtimoiy ierarxiyalarni ham qamrab olishga xizmat qilishini ham ko'rsatadi. Maqola antroponimlarning o'zbek va ingliz tillarida toponim sifatida qo'llanilishidagi o'xshashlik va tafovutlarni ochib berishi nuqtai nazaridan ham nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotda antroponimlarning o'zbek va ingliz tillarida toponim sifatida ishlatilishini o'rganish uchun qiyosiy lingvistik tahlil qo'llaniladi. Ma'lumotlar tarixiy yozuvlar, lingvistik tadqiqotlar va madaniy ma'lumotnomalardan to'planib, shaxsiy ismlarni joy nomlariga aylantirish qonuniyatlarini aniqlash uchun misollar tahlil qilindi. Tadqiqot quyidagilarni aniqlashga qaratilgan:

- Nomlarning shakllanishiga ta'sir qiluvchi tarixiy va geografik omillar.
- Madaniy va mintaqaviy kontekstdagi ismlarning sotsiolingvistik funksiyalari.
- Umumjahon va tilga xos tendensiyalarni ochib berish uchun o'zaro lingvistik taqqoslashlar.

Kalit so'zlar: onomastika, onomastik ko'lam, antroponimlar, toponimlar, nomlashdagi o'ziga xoslik, shaxs ismlari, nomlanishlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ijtimoiy-siyosiy funksiyalar

Особенности употребления антропонимов в качестве топонимов в узбекском и английском языках

*Мухитдинова Хадиджа Сабировна,
x.muxitdinova@uzswlu.uz
Доктор педагогических наук, профессор
Узбекский государственный университет мировых языков*

*Тулаганова Наргиза Бахтияровна
nargizatolaganova9@gmail.com
Магистрант
Узбекский государственный университет мировых языков*

Аннотация. В статье освещается вопрос о ономастике, области лингвистики, изучающей имена, о ее важном практическом значении для понимания связей между языком, культурой и историей. В исследовании исследуются масштабы и слои ономастики, взаимосвязи между именными категориями, динамический характер антропонимов, представляющих личные имена, и расширяются социально-функциональные функции личных имен в результате влияния социально-исторических изменений в обществе. В частности, на примере узбекских и английских антропонимов было проанализировано, как появление антропонимов различных этносов в социальном, историческом и географическом контекстах, представляющих названия топонимических объектов, приводит к расширению социально-политических функций личных имен. Эти аналитические результаты также показывают, что имена служат для охвата не только национально-культурных ценностей, исторических контекстов как идентичностей, но и социальных иерархий. Статья имеет как теоретическое, так и практическое значение с точки зрения выявления сходств и различий в использовании антропонимов в качестве топонимов в узбекском и английском языках. В данном исследовании используется сравнительный лингвистический анализ для изучения использования антропонимов в качестве топонимов в узбекском и английском языках. Данные были собраны из исторических записей, лингвистических исследований и культурных ссылок и проанализированы на примерах, чтобы определить закономерности преобразования личных имен в топонимы. Исследование направлено на выявление:

- Историко-географические факторы, влияющие на формирование имен.
- Социолингвистические функции имен в культурном и региональном контексте.
- Перекрестные лингвистические сравнения для выявления универсальных и специфических для языка тенденций.

Ключевые слова: ономастика, ономастический масштаб, антропонимы, топонимы, идентичность в именовании, личные имена, взаимосвязь между именами, социально-политические функции

Features of the use of anthroponyms as place names in Uzbek and English

Mukhitdinova Khadija Sabirovna,
x.muxitdinova@uzswlu.uz
Doctor of Pedagogical Sciences, professor
Uzbekistan State World Languages University

Tulaganova Nargiza Bakhtiyarovna
nargizatolaganova9@gmail.com
MA student
Uzbekistan State World Languages University

Annotation. The article covers the issue of the onomastic field of linguistics, which studies names, its important practical importance in understanding the connections between language, culture and history. The study investigated the scale and layers of onomastics, the correlation between name categories, the dynamic nature of anthroponyms representing individual names, and investigated the expanding socio-functional functions of individual names as a result of the influence of socio-historical changes in society. In particular, the fact that different Ethnos represent toponymic object names of anthroponyms in social, historical and geographical contexts leads to an expansion of the socio-political functions of individual names has been analyzed on the example of anthroponyms in Uzbek and English. These analytical results also show that nouns serve to encompass social hierarchies, not only in the identity quality of national-cultural values, historical

contexts. The article is also of theoretical and practical importance in terms of revealing similarities and discrepancies in the use of anthroponyms as toponyms in Uzbek and English.

This study uses comparative linguistic analysis to study the use of anthroponyms as toponyms in Uzbek and English. The data was collected from historical records, linguistic studies and cultural references, and examples were analyzed to determine the laws of converting personal names into place names. The study aims to identify the following:

- Historical and geographical factors affecting the formation of names.
- Sociolinguistic functions of nouns in cultural and regional contexts.
- Cross-linguistic comparisons to reveal universal and language-specific trends.

Keywords: *onomastic, onomastic scope, anthroponyms, toponyms, identity in naming, Person names, correlation between names, socio-political functions*

Har bir til lugʻat tarkibida nomlar alohida qatlamni tashkil etadi. Tilshunoslikning nomlarni oʻrganuvchi boʻlimi onomastika deb atalib, uning koʻlami nihoyatda kengdir. Tilning har bir onomastik qatlami tarixiy kelib chiqishi, foydalanuvchilarining hayot tarzi, urf-odatlar va hattoki oʻsha mamlakatga xos boʻlgan tabiiy hodisalardan kelib chiqqan holda tubdan farq qiladi. Insonlar qadim vaqtlardan boshlab oʻzlariga, yashayotgan joylariga nom berishni boshlaganlar.

Aksariyat joy nomlari hududning geografik joylashuvidan kelib chiqqan holda, uning koʻzga tashlanib turadigan biror belgisiga koʻra nomlangan. Bunda shu hududda joylashgan daryolar, koʻllar, suv havzalari, tepaliklar, bogʻlar kabi joyga xos belgilar, insonlarni nomlashda esa yashash joyiga, ajdodlarga xoslik, nasl-nasabga ishora qilish anʼanalari katta oʻrin tutgan. Masalan, Oʻzbekiston hududida mavjud daryo, soy, suv, buloq, quduq, ariqlar oʻzbek tilida *Zarafshon, Qashqadaryo, Amudaryo, Sirdaryo, Toshbulok, Oqdaryo, Qorasuv, Boʻzsuv, Jalolquduq, Beldirsoy, Jarariq* kabi joy nomlarining yuzaga kelishiga sabab boʻlgan. Yoki hududda mavjud tepaliklar, bogʻlardan kelib chiqib, tepa, bogʻ soʻzlarining qoʻshilishi tufayli *Oqtepa, Chinortepa, Oʻratepa, Xirmontepa, Qoʻrgʻontepa kabi, Yakkabogʻ, Bogʻot, Bogʻiston* kabi koʻplab atamalar paydo boʻlgan. Oʻzbek tilining keyingi taraqqiyotida hududlarning obodlashishi tufayli joy nomlarining yasashida obod komponentli *Yunusobod, Chinobod, Xonobod, Gulobod, Hamzaobod, Sayhunobod, Komsomolobod, Yangiobod* kabi atamalarning yuzaga kelishi keng tus olganini qayd etish mumkin. Insonlarni nomlashda esa yashash joyiga, ajdodlarga xoslikka (masalan, oʻzbek tilida *xoji, said, amir, xon, xoʻja, eshon, qul, bek, begim, zoda, boy* kabi soʻzlarni ismlarga qoʻshish; ingliz tilida esa unvonlar yoki maqom koʻrsatkichlari shaxsiy ismlarda ishlatiladigan holatlar mavjud, masalan, *Ser, Lord, Baron, Dyuk, ritsar* yoki xonim. Ushbu qoʻshimchalar olijanoblik maqomini, diniy rolni yoki hatto kasbni anglatishi mumkin. Misol uchun, *Ser Uinston Cherchill* Uinston Cherchillga berilgan ritsarlik unvonini koʻrsatsa, Diana xonim uning olijanobligiga ishora qiladi. Bundan tashqari, familiyalar koʻpincha geografik joylashuvlar, kasblar yoki ajdodlar merosidan kelib chiqishi mumkin. Masalan, *Smit* ingliz tilida keng tarqalgan familiya boʻlib, tarixan temirchi boʻlib ishlagan kishini, *Lankaster* esa Lankaster shahridan kimnidir koʻrsatishi mumkin. Ijtimoiy rollarni, kasblarni va oilaviy merosni shaxsiy nomlarga kiritish anʼanasi onomastikaning ijtimoiy tuzilish va shaxslarning oʻziga xosligi bilan oʻzaro bogʻliqligini koʻrsatadi. Bunday nomlash konvensiyalari madaniy uzluksizlikni saqlashga yordam beradi va tarixiy amaliyot va ijtimoiy ierarxiyalar haqida tushuncha beradi.

A.V. Superanskaya “Atoqli otlarning umumiy nazariyasi” nomli ishida onomastik qatlamni quyidagi guruhlariga ajratgan:


- antroponimlar;
- zoonimlar;
- toponimlar;
- shamollar va tabiiy hodisalar nomlari;
- kosmonimlar (fazofiy jimlar va ularning nomlari);
- xronimlar (tarixiy davrlar nomlari);

- bayram kunlari, mashg'ulotlar va kompaniya nomlari;
- turli xil asbob-anjomlar, qurol-aslaha nomlari;
- institut, ofis va kompaniya nomlari,
- transport nomlari;
- fan nuqtayi nazaridan ba yaratuvchilar tomonidan yaratilgan san'at asarlari nomlari

(Superanskaya, 1973).

Yuqorida nomlari keltirilgan ushbu onomastik qatlam turlari onomastik ko'lamning naqadar kengligini ko'rsatadi, biroq ular bir vaqtning o'zida barcha tillarga birdek tegishli bo'lmazligi mumkin. Jumladan, o'zbek onomastikasining asoschisi E. Begmatov o'zbek tilining onomastik ko'lamini quyidagicha tasniflashni taklif etadi (Begmatov, 2013):

(1.1-rasm)



1.1-rasm. Onomastik qatlam ko'lamlari

Rasmdan ko'rinadiki, onomastik ko'lam nihoyatda keng bo'lib, uning tarkibiga kichik ko'lamchalar ham kiradi. O'zbek tilida nomlarning onomastik ko'lamini bo'yicha tadqiqot olib borgan Y. Avlakulov boshqa ko'p tilshunos olimlar kabi o'zbek tili onomastik ko'lamini asosiy 3 qismga ajratgan bo'lsa ham (makroko'lam, mikroko'lam, boshqa kichik guruxlar), ularga tegishli nomlarni o'rganuvchi bo'limlarni yanada kengroq tasnifiy guruhlarga ajratadi :

antroponimlar (ismlar, laqablar, familyalar, otasimlar, otasining ismi, onasining ismi, eponimlar, taxalluslar, genonimlar);

zoonimlar (giponimlar, bisonimlar, ornitonimlar);

kosmonimlar (marsionimlar, merkuronimlar, vernusonimlar, selenonimlar);

toponimlar (oykonimlar, komonimlar, urbanonimlar, agronimlar, nekronimlar, terronimlar, regionimlar, dromonimlar, xoronimlar, drimonimlar, insulonimlar);

gidronimlar (botionimlar, gelonimlar, limnonimlar, ligonimlar, okeanonimlar, potamonimlar, speleonimlar, katomonimlar, glyasionimlar);

ideonimlar (ktematonimlar, dokumentonimlar, xrononimlar, geoptonimlar, gemeronimlar, bibliionimlar, artionimlar, musiqa asarlariga aloqador atoqli otlar) (Avlakulov, 2019).

Lekin yuqorida keltirilgan o'zbek tili onomastik qatlamining tasniflari muvaqqat hisoblanadi, chunki onomastik qatlam muntazam yangilanib boraveradi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, onomastik bo'limlar orasida o'zaro aloqadorlik mavjud bo'lib, ushbu aloqadorlik, avvalo, turdosh va atoqli otlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikda kuzatiladi. Masalan, *tesha* (turdosh ot) – *Tesha* (boy)

(shaxs ismi), *muhabbat* (turdosh ot) – *Muhabbat* (ism), *quvondik* (fe'l) – *Quvondiq* (ism) va hokazo. Bu xususiyatlarni o'zbek tilidagi shaxs ismlari misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, bugungi kunda o'zbek tilida antroponimlar ijtimoiy funksiyasining tobora kengayib borayotganini kuzatish mumkin.

Bugungi kunda shaxs ismlari asosida:

shahar va qishloqlar nomlari: o'zb. *Navoiy, Beruniy, Hamzaobod, Xo'jaqishloq, Eshonguzar, Xo'jaobod, Yunusobod, Bekobod, Oyimqishloq, Yusufxona*; ingl. *Washington, Lincoln, Jefferson city, Columbus, Madison, Florence, Dickens, Newton, Milton, Byron*.

tumanlar nomlari: o'zb. *Sharof Rashidov, Akmal Ikromov, Beruniy, Navoiy, Chust, Zangiota*; ingl. *Lincolnshire, Clinton Hill, Queen Anne, Franklin District, King William District, Elizabeth District*.

ko'cha va xiyobonlar nomlari: o'zb. *Alisher Navoiy ko'chasi, Amir Temur xiyoboni, Bobur parki, Sakkokiy ko'chasi, Koshg'ariy ko'chasi, Islom Karimov ko'chasi, Abdulla Qodiriy ko'chasi, Ulug'bek bog'I*; ingl. *Wellington Street, Churchill Avenue, Lincoln Road, Roosevelt Avenue, Darwin Street, Victoria park, Shakespeare Park, Jefferson Park, Abraham Lincoln Memorial Park*.

teatr va mahalla nomlari: o'zb. *Muqimiy teatri, Hamid Olimjon teatri, Abdulla Qahhor mahallasi, Bobur mahallasi, Muqimiy mahallasi, Cho'lpon teatri, Furqat teatri, Alisher Navoiy opera va balet teatri, Abror Hidoyatov nomli drama teatri*; ingl. *Shakespeare theatre, Barrymore Theatre, Garrick Theatre, Richard Rodgers Theatre, Victoria Ward, King William's Town, Churchill Gardens*.

ta'lim muassasalari va masjidlar nomlari: o'zb. *Al-Xorazmiy, Abdulla Qodiriy maktabi, Sodiqskul, Islom Karimov masjidi, Suzuk ota, Temuriylar Akademiyasi, Cho'lpon litseyi, Navoiy nomidagi til va adabiyot universiteti, Amir Temur maqbarasi, Bahouddin Naqshband ziyoratgohi, Qaffol Shoshiy mozori*; ingl. *Yale University, Harvard University, Oxford's Churchill College, Stanford University, St. Paul's Cathedral, St. Mary's Church, St. Thomas Cathedral, St. John's Abbey, St. Peter's Basilica, St. George's Chapel*.

do'konlar va kafelar nomlari: o'zb. *Mohlaroyim, Svetlana, Afro'z, Alpomish, E'zoz, Sultonsaroy, Dilbar, Nilufar, Nafosat, Go'zal*; ingl. *Starbucks, Tiffany's Café, La Duree, Tim Hortons, Pete's Coffee, Ben & Jerry's, John Lewis* kabilar yuzaga kelganini ko'rish mumkin. Eng e'tiborlisi, ushbu joylar nomlari xalq tomonidan shaxs ismlari bilan muhrlangan va metonimik birlik sifatida qo'llanadi. Antroponimlarning toponimlar sifatida qo'llanishlari shaxs otlarining ijtimoiy funksiyalarining kengayib borayotganini va onomastik qatlam guruhlari o'rtasida o'zaro aloqadorlik borgan sari kuchayib borayotganini, ko'rsatadi. Bu holatni ingliz tili misolida ham ko'rish mumkin. Hozirgi kunda joy nomlari ko'pincha nafaqat geografik joylashuvning belgisi, balki tarixiy, madaniy yoki siyosiy ahamiyatga ega belgilar sifatida ham xizmat qiladi. Toponimlarda shaxsiy ismlardan foydalanish taniqli shaxslarning hissalarini ta'kidlash, muhim voqealarni yodga olish va milliy yoki mahalliy o'ziga xosliklarni mustahkamlash maqsadlarida ishlatilishi mumkin. Masalan, shaharlar, ko'chalar va muassasalar ko'pincha taniqli tarixiy shaxslar nomi bilan ataladi: Vashington, Kolumbiya, Jorj Vashington nomidagi yoki Qirolicha Viktoriya nomidagi toponimlar. Ushbu nomlar ham ijtimoiy, ham madaniy ma'nolarga ega bo'lib, bu joyni u nomlangan shaxsning merosi bilan bog'laydi. Shunday qilib, shaxsning nomini berish harakati, shuningdek, jamiyatning qadriyatlarini va intilishlarining aksi, shuningdek, jamoaviy xotira tuyg'usini mustahkamlash vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bundan tashqari, ushbu nomlash amaliyoti onomastikaning (ismlarni o'rganish) turli xil ijtimoiy funksiyalar, shu jumladan siyosat, ta'lim, tijorat va din bilan o'zaro ta'sirini ko'rsatadi. Toponimiyada antroponimlarning doimiy ishlatilishi, shuningdek, jamoat va madaniy maydonlarni shakllantirishda shaxsiy identifikatsiyaning ahamiyati ortib borayotganidan dalolat beradi. Shaxsiy ismlar va joy nomlari o'rtasidagi munosabatlar yanada murakkablashdi, joy nomlari nafaqat geografik identifikatorlarga, balki kuch, meros va jamoaviy o'ziga xoslik belgilariga aylandi.

Ushbu tadqiqot o'zbek va ingliz onomastika sohasidagi o'zaro aloqadorlik va dinamik taraqqiyotlar, shaxs nomlari va geografik nomlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar nomlash amaliyotida ijtimoiy qadriyatlar va madaniy merosning ko'zgusi bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi.

Bu borada olib borilgan tahliliy ishlar shuni ko'rsatadiki, antroponimlar toponimlar sifatida ishlatilganda, tarix, madaniyat va jamiyat o'ziga xosligining ramziga aylanadi va bu uning shaxs nomining identifikatori sifatidagi asl funksiyasidan ustun turadi. O'zbekcha va inglizcha shaxs nomlarini nomlash an'analari buyuk ajdodlar, taniqli shaxslarni hurmat qilish va tarixiy voqealarni xotirlash tendensiyasini ilgari surish birga bilan birga har bir tilning o'ziga xos lingvistik va madaniy xususiyatlarini aks ettiradi. Ularni qiyosiy o'rganish va tahlil qilish til onomastik sohasining, xususan antroponimlarning dinamik va ko'p qirrali tabiatiga oydinlik kiritib, ushbu tadqiqot ismlar jamoaviy xotirani, madaniy o'ziga xoslikni va tarixiy uzluksizlikni qanday shakllantirishi va aks ettirishini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Shuningdek, u globallashtirilgan dunyoda nomlarning rivojlanayotgan ijtimoiy-siyosiy funksiyalari bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish zarurligini ta'kidlaydi. Topilmalar madaniy merosni himoya qilish va madaniyatlararo hamjihatlikni rivojlantirish vositasi sifatida nom berish an'alarini saqlash va o'rganish muhimligini ta'kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avlakulov, Ya.I. (2019). The Scope of Onomastic Layers. *Fan va texnologiya*. Tashkent, 22.
2. Begmatov E.A. (2013). Ozbek tili antroponimikasi. *Fan*. Toshkent, 9.
3. Superanskaya, A.V. (1973). A General Theory of Proper Names. *Nauka*. Moscow, 159